

Manfaatlar to'qashuvi Siyosati

FOREX CLUB INTERNATIONAL LLC

MUNDARIJA:

1. KIRISH	3
2. SIYOSATNI QO'LLASH DOIRASI	3
3. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI ANIQLASH MEZONLARI	3
4. MANFAATLAR TO'QNASHUVLARINI ANIQLASH	4
5. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI BOSHQARISH UCHUN PROTSEDURALAR VA NAZORAT VOSITALARI	
4	
6. MIJOZNING ROZILIGI	5
7. MA'LUMOTLARNI OSHKOR QILISH	5
8. SIYOSATGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH VA QO'SHIMCHA MA'LUMOTLAR	6

1. KIRISH

- 1.1. Ushbu manfaatlar to'qnashuvi siyosati ("Siyosat") FOREX CLUB INTERNATIONAL LLC (keyingi o'rnlarda "Kompaniya", "Bizning", "Biz" deb yuritiladi) amal qiladigan joyda, biz bilan biznes aloqalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, tartibga solish, yumshatish yoki nazorat qilish tartibini tavsiflaydi.
- 1.2. Kompaniya halol, adolatli, professional va o'z Mijozlari manfaati uchun harakat qilishga intiladi.
- 1.3. Ushbu hujjatning maqsadi kompaniyaning odatdagi biznes faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va tartibga solishga yondashuvini bayon qilishdir. Bundan tashqari, ushbu hujjat manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni belgilaydi.

2. SIYOSATNI QO'LLASH DOIRASI

- 2.1. Ushbu Siyosat Kompaniya bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan barcha direktorlar, xodimlar va har qanday shaxslarga (bundan buyon matnda "Aloqador shaxslar", deb yuritiladi) nisbatan qo'llaniladi va barcha Mijozlar bilan o'zaro munosabatlarga taalluqlidir.

3. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI ANIQLASH MEZONLARI

- 3.1. Kompaniya Mijoz bilan bitimlar/tranzaksiyalarni amalga oshirganda, Kompaniya (yoki Kompaniyaga aloqador hamkor yoki boshqa shaxs) tegishli operatsiyaga nisbatan katta qiziqish, munosabatlar yoki kelishuvlarga ega bo'lishi yoki Mijozning manfaatlariga zid bo'lishi mumkin. Shu bilan Kompaniya manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan va bir yoki bir nechta Mijozlarning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, lekin shart bo'limgan bir qator vaziyat va holatlarni aniqlaydi va ularni ochib beradi.
- 3.2. Xizmatlar ko'rsatish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va mavjudligi Mijozning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi turlarini aniqlash uchun Kompaniya minimal mezon sifatida Kompaniya, Aloqador Shaxs yoki boshqa shaxs, xizmatlar ko'rsatish yoki investitsiya faoliyati yoki boshqa yo'l bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita boshqaruvda bo'ladimi yoki yo'qligini Kompaniya bilan birgalikda ko'rib chiqadi, ya'ni quyidagi qarama-qarshi vaziyatlardan birida:
 - 3.2.1. Kompaniya yoki Aloqador Shaxs Mijozga ko'rsatiladigan xizmat yoki Mijoz nomidan amalga oshirilgan bitim bilan bog'liq bo'lib, natijada Mijozning manfaatlaridan farq qiladi.
 - 3.2.2. Kompaniya yoki Aloqador Shaxs ko'rib chiqilayotgan Mijozning manfaatlariga zid ravishda boshqa Mijoz yoki Mijozlar guruhining manfaatlarini qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy yoki boshqa rag'batga ega.
 - 3.2.3. Kompaniya yoki Aloqador Shaxs Mijoz bilan bir xil biznes bilan shug'ullanadi.

- 3.2.4. Kompaniya yoki unga Aloqador Shaxs Mijoz bo'limgan shaxsdan ushbu Mijozga taqdim etilayotgan xizmatga nisbatan standart komissiya yoki ushbu xizmat uchun to'lovdan tashqari pul mablag'lari, tovarlar yoki xizmatlar ko'rinishida mukofot oladi yoki kelajakda oladi.

4. MANFAATLAR TO'QNASHUVLARINI ANIQLASH

- 4.1. Kompaniya biznesining hozirgi tabiati, ko'lami va murakkabligini hisobga olgan holda, xizmatlar ko'rsatish natijasida bir yoki bir nechta mijozlarning manfaatlariga jiddiy zarar yetkazish xavfi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha tegishli manfaatlar to'qnashuvlarining aniq ro'yxatini aniqlash yoki yaratish mumkin bo'lmasa-da, quyidagi ro'yxat manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni o'z ichiga oladi:
- 4.1.1. Kompaniya komissiya daromadlarini ko'paytirish maqsadida bitimlar hajmini maksimal darajada oshirishdan manfaatdor bo'lishi mumkin, bu esa, Mijozning bitimlar xarajatlarini minimallashtirish bo'yicha shaxsiy maqsadiga ziddir
- 4.1.2. Kompaniya moliyaviy vositalar yoki Asosiy Aktivlarda Mijozning manfaatlariga zid yoki raqobatdosh bo'lgan manfaatlarga ega bo'lishi mumkin bo'lgan sheriklarga yoki kompaniyaning boshqa mijozlariga boshqa xizmatlarni ko'rsatishi mumkin
- 4.1.3. Kompaniya moliyaviy foyda ko'rishi yoki Mijoz hisobidan moliyaviy yo'qotishlardan qochishi mumkin
- 4.1.4. Kompaniyaning bonus tizimi o'z xodimlarini Mijozning savdo hajmi va boshqalar asosida mukofotlashi mumkin
- 4.1.5. Kompaniya yangi Mijozlarni jalg qilish yoki Mijozlarning savdo faoliyati tufayli uchinchi shaxslarga mukofot to'lashi yoki mukofot olishi mumkin
- 4.1.6. Har qanday bozor ma'lumotlari, o'qitish va mumkin bo'lgan bozor tendentsiyalarini muhokama qilish savdo/investitsiya tavsiyalari sifatida ko'rib chiqilmasligi kerak. Mijoz har qanday pozitsiyani ochishdan oldin bozorni mustaqil ravishda tahlil qilishi shart.

5. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI BOSHQARISH UCHUN PROTSEDURALAR VA NAZORAT VOSITALARI

- 5.1. Umuman olganda, Kompaniya aniqlangan manfaatlar to'qnashuvini boshqarish uchun foydalananadigan protseduralar va nazorat vositalari quyidagi choralarini o'z ichiga oladi (ushbu ro'yxat to'liq emas):
- 5.1.1. Tegishli ichki nazoratni ta'minlash uchun Kompaniyaning biznes faoliyatini doimiy ravishda kuzatib borish.
- 5.1.2. Bunday ma'lumot almashish bir yoki bir nechta Mijozlarning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi xavfi bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanadigan Aloqador Shaxslar o'rtasida ma'lumot almashishni oldini olish yoki nazorat qilish bo'yicha Kompaniyaning samarali protseduralari hisoblanadi.

- 5.1.3. Asosiy funktsiyalari manfaatlari bir-biriga zid bo'lishi mumkin bo'lgan Mijozlarga xizmat ko'rsatishni o'z ichiga olgan yoki bir-biriga zid bo'lishi mumkin bo'lgan turli xil manfaatlarni, shu jumladan Kompaniya manfaatlarini aks ettiradigan tegishli shaxslarni alohida nazorat qilish.
- 5.1.4. Har qanday shaxs tomonidan Aloqador Shaxsning investitsiya xizmatlari, yordamchi xizmatlar ko'rsatishi yoki har qanday faoliyatni amalga oshirishiga noo'rin ta'sir ko'rsatishining oldini olish yoki cheklash choralari.
- 5.1.5. Agar bunday ishtirok manfaatlar to'qnashuvini to'g'ri boshqarishga xalaqit berishi mumkin bo'lsa, Aloqador Shaxsning alohida investitsiya xizmatlarida bir vaqtning o'zida yoki ketma-ket ishtirok etishining oldini olish yoki nazorat qilish choralari.
- 5.1.6. Rag'batlantirish va uni olish natijasida yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvini cheklashga qaratilgan siyosat.
- 5.1.7. Kompaniya ichidagi maxfiy va ichki ma'lumotlarning oqimini cheklaydigan axborot to'siqlari va bo'limlarning jismoniy bo'linishi.
- 5.1.8. Elektron ma'lumotlar bazasiga kirishni tartibga soluvchi protseduralar.
- 5.1.9. Xuddi shu shaxs tomonidan bajarilishi manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan vazifalarni taqsimlash.
- 5.1.10. Aloqador Shaxslarga o'z investitsiyalari bo'yicha qo'llaniladigan shaxsiy hisob-kitob talablari.
- 5.1.11. Kompaniya mansabdar shaxslari va xodimlarining kompaniyaning oldindan rozilgisiz Kompaniya manfaatlariga zid bo'lgan tashqi biznes manfaatlariga ega bo'lishini taqiqlash.
- 5.1.12. Kompaniyada maxfiy yoki ichki ma'lumotlarning tarqalishini tartibga soluvchi minimal zarur xabardorlik siyosati.

6. MIJOZNING ROZILIGI

- 6.1. Kompaniya bilan Mijoz shartnomasini tuzish orqali Mijoz unga ushbu siyosatni qo'llashga rozilik beradi. Bundan tashqari, Mijoz har qanday manfaatlar to'qnashuviga yoki savdo operatsiyasiga katta qiziqish bildirishiga qaramay, Mijozga oldindan xabar bermasdan, Kompaniya Mijoz bilan har qanday tarzda biznes yuritishga rozilik beradi va vakolat beradi.
- 6.2. Agar Kompaniya manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vaziyatni hal qila olmasa, u Mijozga bu haqida xabar beradi.

7. MA'LUMOTLARNI OSHKOR QILISH

- 7.1. Agar Mijoz yoki Mijozlar guruhi bilan ishbilarmonlik munosabatlari davomida, ushbu Mijoz yoki Mijozlar guruhi bilan bog'liq manfaatlar to'qnashuvining oldini olish yoki tartibga solish uchun tashkiliy yoki ma'muriy choralar/tadbirlar yetarli bo'lmasa, Kompaniya Mijoz yoki Mijozlar guruhi bilan keyingi biznes aloqalari boshlanishidan oldin manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish majburiyatini oladi.

**8. SIYOSATGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH VA QO'SHIMCHA
MA'LUMOTLAR**

- 8.1. Kompaniya o'z siyosati va kelishuvlarini qayta ko'rib chiqish va/yoki o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi, ammo u Kompaniya va Mijoz o'rtaсидаги Mijozlar shartnomasi shartlari maqsadiga muvofiq, deb topilishi kerak.